
Aholini ro'yxatga olish - muhim vazifa

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar aniqligini ta'minlash va aholining yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma'lumot darajasi, nikoh holati, bandligi va boshqa tasniflari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish maqsadida 2022 yilda aholini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish belgilandi. Farmon ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokamaga qo'yildi.

Xo'sh, aholini ro'yxatga olish tadbiri iqtisodiy jihatdan bizga nima beradi?

Birinchi, aholini ro'yxatga olish mehnat va uy-joy bozorlarini rejalashtirish, respublika byudjetini tuzish, transport siyosatini yuritish elektrenergetika, ijtimoiy ta'minot, sog'likni saqlash va ta'lim sohalari, tip va diniy siyosat masalalarida juda muhim ahamiyatga ega. Bir so'z bilan aytganda, qaysi sohada bo'lmasin, kelajakni bashorat qilish zarur bo'lgan hollarda aholini ro'yxatga olish natijalarisiz ish tutib bo'lmaydi.

Ikkinchi, undan aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni (yalpi ichki mahsulot, aholi daromadlari, sanoat mahsuloti hajmi, iste'mol mahsulotlari hajmi, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) hisoblashda foydalaniladi.

Uchinchi, aholi ro'yxati respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash hamda oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha manzilli dasturlarni ishlab chiqishda axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

To'rtinchi, mazkur ma'lumot aholi punktlarining infratuzilmasini yaxshilashda, mehnat resurslaridan foydalanish va joylashtirish bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq, muddatli dasturlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bunday ma'lumotlar ilm-fan va jamiyatni axborot bilan ta'minlash uchun ham zarur.

O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasiga muvofiq aholini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq harajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladi.

Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga, uning materiallarini qayta ishlashga, natijalarini olish va e'lon qilishga jalb etilgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash maxsus ishlab chiqilgan va tasdiqlangan normativlar asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda 2022 yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish bo'yicha BMTning Aholishunoslik jamg'armasi, Statistika komissiyasi hamda Yevropa iqtisodiy komissiyasi bilan ham tashkiliy, uslubiy va moliyaviy jihatlar bo'yicha hamkorlik qilinmoqda.

2019-10-10 15:25:20